

JIROVLAR POEZIYASIDA TARIXIY VOQEELIK

Egamkulova Gauhar Mustafayevna

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ В ПОЭЗИИ
СКАЗИТЕЛЯ

Эгамкулова Гаухар Мустафаевна

Докторант Нукусского государственного педагогического
института

HISTORICAL REALITY IN ZHYRAU'S POETRY

Egamkulova Gaukhar Mustafayevna

Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute



<https://orcid.org/0009-0000-4182-1663>

e-mail:

gavrvella80@mail.ru

Annotatsiya: Tarix – hayotdan olgan tajriba bo'lsa, tarixiy tolg'ovlar – ruhiy san'at namoyonidir. Tarixiy tolg'ovdagi ma'lumotlar haqiqatning o'zi emas, balki xalqning haqiqatni tanish usulidir. Demak, tarix – san'at tushunchalari va ijtimoiy g'oyalar bilan sug'orilgan ruhiy olamdir. Bunday asarlar tarixni xalq ongiga moslashtirib, voqealarni qiziqarli tarzda taqdim etib, xalqning taqdiri, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashlarini birlashtiruvchi san'at izlanishlarining alohida bir ta'sirli qismidir. Qoraqalpoq xalqining tarixidan ko'p ma'lumot beruvchi tarixiy tolg'ovlarning katta bir qismi – No'g'ayli davrida yaratilgan she'riy asarlardir. Maqolada aynan No'g'ayli davridagi voqealarning terma-to'lg'ovlardagi aksi tasvirlangan.

Kalit so'z: No'g'ayli davri, tarix, terma, to'lg'ov, jirov.

Abstract: History is the result of life experience, while historical tolgau are a manifestation of spiritual art. In historical tolgau, information is not reality itself, but is a way of people's perception of reality. Thus, history is a spiritual world, saturated with artistic concepts and social ideas. Such works adapt history to the people's consciousness, presenting events in an interesting form, and are a special impact of artistic search, uniting the fate of the people, social relations and worldview. One of the significant parts of historical tolgau, containing a lot of information about the history of the Karakalpaks, are poetic works created in the Nogai period. The article discusses the reflection of the events of the Nogai period in terme-tolgau.

Key words: Nogai period, history, terme, tolgau, zhyrau

Аннотация: История – это результат жизненного опыта, тогда как исторические толгау представляют собой проявление духовного искусства. В исторических толгау информация не является самой реальностью, а представляет собой способ народного восприятия реальности. Таким образом, история – это духовный мир, насыщенный художественными понятиями и социальными идеями. Такие произведения адаптируют историю к народному сознанию, представляя события в интересной форме, и являются особым воздействием художественного поиска, объединяющим судьбу народа, социальные отношения и мировосприятие. Одной из значительных частей исторических толгау, содержащих много информации о истории каракалпаков, являются поэтические произведения, созданные в Ногайский период. В статье рассматривается отражение событий Ногайского периода в терме-толгауах.

Ключевые слова: Ногайский период, история, терме, толгау, жырау.

Jirovlar poeziyasi xalqning avvalgi an'alaridan boshlab bugungi kungacha yetib kelgan, endi kelajakka ulashadigan tarixdagi barcha voqealarning xalq orasidagi ta'sirchan ruhiy arnasi bo'lib keladi. Jirovlar poeziyasining vaqt hamda makon tizimidagi estetik-gumanistik xususiyati, milliy adabiyotning rivojlanishi jarayonidagi badiiy ta'siri, jamiyat ijtimoiy jihatlari hamisha ahamiyatli bo'lib qoladi.

Badiiylikka qurilgan tarixiy haqiqat terma-to'lg'ovlarda ko'pincha hayotda sodir bo'lgan voqealardan tug'iladi. Badiiy jumla yaratish ijodiy aql va chuqur hayajin, o'tkir va tezkor tasavvur mahsulidir. Albatta, tasavvurga qanot bog'lab, ijodiy ilhomni uyg'otadigan bu – ijodiy tendentsiya.

Qoraqalpoq jirovlarining terma-to'lg'ovlaridagi badiiy haqiqatlar jirovlarning o'zlari guvohi bo'lgan voqealardir. Ular ana shu qonli, bosqinli kunlar orasida yurib o'z asarlarini dunyoga keltirdi. Lekin, bizga ularning ba'zilar muallifi noma'lum holda yetib kelgan. Qoraqalpoq to'lg'ovlarini tadqiq qilgan olim K.Mambetov ta'kidlaganidek, to'lg'ov – bu xalqning bosib o'tgan yo'li, tarixiy hayoti. Unda xalqning dardi, madaniy yo'li saqlangan [1, 6].

Tarix – hayotning bog'lovchi vositasi bo'lsa, tarixiy to'lg'ovlar - ruhiy bog'lovchilik aksi sanaladi. Tarixiy to'lg'ovlardagi ma'lumotlar haqiqatning o'zi emas, balki xalqning haqiqatni saralab olgan kontseptsiyasidir. Demak, bu yerdagi tarix – badiiylik tushunchasi va ijtimoiy qarashlar bilan boyitilgan ruhiy olam mulkidir. Bunday asarlar tarixni xalq ongiga mos tarzda o'ziga xos to'ldirib, voqealarni o'zgartirib, xalq taqdiri, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashini to'liq aks ettiradigan badiiy izlanishlarning o'ziga xos ta'sirli hikoyasidir.

Qoraqalpoq xalqining tarixidan boy ma'lumotlar beruvchi tarixiy to'lg'ovlarning katta bir qismi - No'g'oy zamonida yaratilgan poetik asarlardir.

Qoraqalpoq, qozoq va no'g'oy xalqlari tarixidagi shiddatli voqealarga to'la No'g'oy davri o'sha davrning ruhini ifodalovchi epos, to'lg'ov va tarixiy qo'shiqlarga ham boy. Bu davr adabiyotini P.P.Ivanov, S.P.Tolstov, V.I.Jirmunskiy, A.Qo'ng'irotboyev, V.V.Trepavlov kabi turkiy xalqlar tarixi va folklorini o'rganuvchi

tadqiqotchilar, mahalliy ko'plab tarixchi va adabiyotshunos olimlar, jumladan, N.Davqarayev, S.Kamalov, M.Nurmuxamedov, I.Sag'itov, Q.Ayimbetov, Q.Maqs'etov, K.Mambetov, M.Tillamuratov, A.Qo'jiqbayev va boshqalar turli jihatlardan o'rgangan.

“No'g'oy” atamasining o'zi tarixiy shaxs ismi bilan bog'liq. Buxoro-Navoiy hududlari qoraqalpoqlari folklorida No'g'oy haqida:

Alalay menen Bulalay,

At boladi jorg'a tay,

Er qadirin er biler,

Erte de otti Er No'gay...[2, 260], - deb

kuylanadi.

Qoraqalpoqlar shajarasida “Er No'g'oy”, “Amir No'g'oy” yoki “No'g'oy mirza”, “No'g'oy sulton”, “No'g'oy xon” ismi bilan mashhur bo'lgan bu shaxs o'z nomi bilan ataluvchi katta ulusning asosini solgan Oltin O'rda hukmdorlaridan biri sifatida ma'lum. Berke xon davrida Oltin O'rdada “tumanboshi” lavozimida turgan No'g'oy sulton katta harbiy quvvatga ega bo'lib, davlatning g'arbiy hududlariga hukmdorlik qilgan [3, 84].

Q.Mambetovning yozishicha, “Qoraqalpoqlar shajarasining boshi shu No'g'oydan boshlanadi...” [4, 30]. Oltin O'rda davrida Qrim va Bessarabiya yerlarigacha shaxsiy hukmronlik qilgan No'g'oy (1262-1301) o'sha vaqtdagi yirik harakatlarda ishtirok etgan va mang'itlar boshlig'i, ulusboshi darajasiga ko'tarilgan. V.M.Jirmunskiyning tasdig'iga ko'ra, No'g'oy boshqargan ulus Oltin O'rdadan mustaqil harakat qilgan [5, 413]. Natijada, xalq “Er No'g'oy” deb atagan mashhur harbiy boshining qo'li ostiga boshqa qabilalar ham kelib qo'shilgan va ularning barchasi o'z qo'mondonining ismi bilan “No'g'oy”, “No'g'oyli” deb atalishni boshlagan.

No'g'oy zamonini ma'lum darajada o'rgangan Q.Mambetov: “Qoraqalpoq xalqining uch asrlik tarixi shu odamning, shu ulusning va qabilaning ismi bilan bog'liq” [4, 108], — degan xulosaga kelgan. Shuningdek, jirov ijro etgan asarlar faqatgina Er No'g'oy ismini esga solmasdan, butun bir davrlar yilnomasiga ishora qilib o'tirganligi ko'rinib turadi.

Er No'g'oy izidan ergashgan ellar bir ulusga birlashishi va oradan uzoq vaqt o'tmasdan, ayrimlarining qaytadan Edil-Yoyiq sohillariga ketishi, 1391-yilga kelib — tumanboshi Edige

botirning birlashtirishi bilan ularning Oltin O‘rda tarkibidan butunlay ajralib chiqib, “No‘g‘oyli yurti” nomi bilan yangi mulkni tuzganligi tarixiy hujjatlardan ma‘lum. To‘lg‘ovlarda bu voqealar to‘liq aks ettirilmagan bo‘lsa ham, xalq qahramoni bo‘lgan Er Edige ismi eng avval esga olinadi. Masalan:

*Edil babam kiyatir,
Elge babam kiyatir,
Eliw attı quwalap,
Edige babam kiyatir!*

No‘g‘oyli davrida yaratilgan tarixiy to‘lg‘ovlar xalq orasida yaxshi saqlangan va ayrim holatlarda ular ma‘lum bir tarixiy shaxslar, ulug‘ biylar va mashhur jirovlar bilan bog‘lanib aytiladi. Masalan, No‘g‘oyli davrining mashhur shaxslari O‘roq va Mamay haqida aytiladigan quyidagi to‘lg‘ovni ko‘rib chiqaylik:

*Ay Orađım, Orađım!
Aylanay sennen qarađım
Jabı jurıtqa jaq bolđan
Jawđa ilayıq jarađım
Mamay menen ekiñniñ
Maqul edi talabıñ
Bađı ushın tuwđan eliniñ
Batırı dep baladıñ
Jalđanniñ salđan sawdası
Jalđız qaldıñ shırađım... [6, 64].*

Mamay — mang‘itlar boshlig‘i, No‘g‘oy Ordosining biyi Mo‘soning o‘ttiz o‘g‘illaridan biri. Mo‘soning ikkinchi xotini Xojadan tug‘ilgan. Rus solnomalari uni knyazlik o‘rnini egallagan Mirza deb atashadi. Mamay “Qrimning qirq batiri” dostonlar siklidagi “O‘roq-Mamay” dostonining bosh qahramonlaridan biri. Mo‘soning yana bir Mamay ismli o‘g‘li bo‘lgan, uni Shayx Mamay (Shoh Mamay, ba‘zan Shamay) deb atashadi.

No‘g‘oy Ordosi boshliqlari Mo‘so va uning ukasi Jamg‘urchi vafot etgandan keyin uning farzandlari o‘rtasida yetakchilik uchun kurash boshlanadi. Biroq Mamay Mirza bu kurashga qatnashmaydi, o‘gay ukasi Alchag‘irni qo‘llab-quvvatlaydi. Alchag‘irning asosiy raqibi o‘gay akasi Shayx Muhammad edi. O‘sha davrda Jonibekxon Alchag‘irga Shayx Muhammadni butun yerlari bilan birga butunlay mag‘lub qilishni taklif etadi. Mamay ham bunga rozi bo‘ladi. Ma‘lum bo‘lganidek, o‘sha paytda Jonibekxon No‘g‘oylarni kutmasdan Shayx Muhammadni mag‘lub qiladi, bu No‘g‘oylarga

yoqmaydi, chunki Jonibekxon Shayx Muhammadning barcha mulklari va uluslarini o‘zi egallab oladi. Barcha boyliklaridan mahrum bo‘lgan Shayx Muhammad Alchag‘ir oldiga aybini tan olib boradi, ammo u uni qamab qo‘yadi. Bu holat ko‘plab No‘g‘oy oqsoqollarining noroziligiga sabab bo‘ladi, shunda Mamay 50 kishidan iborat o‘ziga sodiq odamlari bilan borib, Shayx Muhammadni ozod qiladi va Alchag‘irning ordasidan olib chiqib ketadi.

Qozoqlar hujumidan keyin va No‘g‘oylarning asosiy rahbarlari Shayx Muhammad va Alchag‘ir vafot etgandan keyin Mamayning roli yanada ortib boradi. U qozoq xoni Qosim vafot etgandan keyin qozoqlarni quvib chiqarish uchun kurashni boshqargan No‘g‘oy boshliqlaridan biri bo‘ladi.

1523-yilda Qrim xoni Muhammad Girey qozoqlarning hujumi davrida o‘ziga bo‘ysungan No‘g‘oylarning yordami bilan Astraxan xoniga qarshi yurish boshlaydi. Bu yurishda No‘g‘oylarni Mamay va Og‘ish biylar boshqargan deb aytilgan. Astraxan birona jangsiz taslim bo‘ladi, chunki kelgan qurolli kuchga qarshi turish foydasiz edi. Ammo keyinchalik No‘g‘oylar Qrim xoniga qarshi yurish qilib, xoning vorisi Bahodir Girey bilan birga shahar tashqarisida o‘ldiradi [7, 752].

Mang‘it Mirza O‘roq — No‘g‘oy O‘rdosining biyi Alchag‘irning o‘g‘illaridan biri bo‘lib, onasi Qrim xoni Mengli Gireyning singlisi edi. U kichik No‘g‘oy O‘rdosining asoschisi Qozining otasidir. O‘roq otasi bilan birga shayx Muhammad o‘rtasidagi ichki kurashlarda qatnashgan. Taxminan 1516-yilda Alchag‘ir mag‘lub bo‘lib, O‘roq bilan birga Qrimdagi Muhammad Gireyning himoyasiga borgan. 1520-yillarda Said Ahmad bilan birga No‘g‘oy O‘rdosining chegaralarida qozoqlarga qarshi kurashda faol ishtirok etgan. Bu urushlarda u qozoq qo‘mondonlaridan biri — Qoblandini o‘ldirgan. Epik rivoyatlarga ko‘ra, u 1523 yilda Mamayning boshchiligida Qrimga qarshi yurishda qatnashgan [7, 752].

Umuman olganda, terma-tulg‘ovlar o‘zining badiiy izlanishlari bilan hayotning haqiqiy aksini ko‘rsatishda bir qancha yutuqlarga erishdi. Jirovlar yaratgan to‘lg‘ov janri mustaqil janr sifatida shakllanishi bilan birga, ilk bor ijtimoiy hayotni, undagi turli xil odamlar munosabatlarini baholab, ertangi kelajak haqida fikr bildirdi. Buning barchasi aql-nasihat, naql-maqol ko‘rinishida namoyon

bo'lib, folklorimizdagi didaktik mazmunli she'rlarning shakllanishiga olib keldi.

Tarixiy to'lg'ovlardan tarixiy ma'lumot oladigan bo'lsak-da, ularni tarixiy manba sifatida foydalanish juda ehtiyotkorlikni talab qiladigan masala. Sababi, tarixiy folklorda aniq o'tmishda bo'lgan voqea yoki shaxslar epik voqealar va personajlar bilan aralashib ketishi mumkin. Vaqt va makon tarixiy folklor namunalari o'zgaruvchan bo'lib keladi. Shunga qaramay, davr ruhini, xalq ruhini va ijodkor ruhini tushunishda tarixiy folklor namunalari, xususan tarixiy tulg'ovlarning o'rni juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Məmbetov K. Qaraqalpaq tolğayları. – Nəqis: Bilibim, 1995.

2. Qalli Ayimbetov nomidagi «Xalq donishmandligi» folklor klubi arxivi. - Nukus, 2018. - Nusxasi 14.

3. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1950.

4. Məmbetov K. Qaraqalpaqlar shejiresi. – Nəqis: Bilibim, 1993.

5. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974.

6. Қанаатов Т. Толғау-жырлардың базыбир сыпатлы белгилери туўралы (Бухара қарақалпақлары фольклорындағы лирикалық жанрлар мәселесине) // ӨзИА ҚҚБ Хабаршысы, 1999, №6.

7. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – Москва: «Восточная литература», 1960.

